Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....	976
Tursunov Abdulla Qoraboshevich	



KICHIK BIZNES FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA MAHALLIY BOSHQARUV BILAN MUSHTARAK JIHATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich

I.f.f.d (PhD), "University of Business and Science"

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes faoliyatini o'ziga xos xususiyatlarining mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlari, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmining tarkibi, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmi samaradorligini baholashning uslubiy masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, iqtisodiy mexanizm, samaradorlik.

Abstract: This article discusses aspects of the specifics of small business activities common with local government, the structure of the economic mechanism of small business management at the local level, methodological issues of evaluating the effectiveness of the economic mechanism of small business management at the local level.

Key words: small business, economic mechanism, efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрены общие с местным самоуправлением аспекты специфики деятельности малого бизнеса, структура экономического механизма управления малым бизнесом на местном уровне, методические вопросы оценки эффективности экономического механизма управления малым бизнесом на местном уровне.

Ключевые слова: малый бизнес, экономический механизм, эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda global miqyosdagi raqobatlashuvning keskinlashib borishi sharoitida mamlakatlarning ichki iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning muhim yo'nalishi sifatidagi kichik biznes subyektlari imkoniyatlaridan foydalanishga e'tibor kuchayib bormoqda. Kichik biznes sohasining boshqaruv obyekti jihatidan o'ziga xos xususiyat va tavsiflarining kuchli darajada namoyon bo'lishi, ayniqsa, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarishda mazkur holatni to'liq e'tiborga olgan holda faoliyat samaradorligini ta'minlashning ahamiyatini kuchaytirmoqda. "Mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari o'z hududlarida biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishiga asoslanuvchi mahalliy-xususiy sheriklik usullari tobora kengayib bormoqda. Kichik tadbirkorlikning rivojlanishi – bu qo'shimcha ish o'rinlari, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni mahalliy ehtiyojlar uchun amalga oshirish, mahalliy byudjetga soliq to'lovlarini namoyon etadi. Yirik korxonalarda ishlab chiqarishning pasayishi va ish o'rinlarining qisqarishi sharoitida kichik biznes ko'plab mahalliy tuzilmalarda hayotni ta'minlashning asosiy omiliga aylanmoqda" ^[1]. Bu esa muntazam ravishda kichik biznesni mahalliy darajada boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda mexanizm tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, D.M. Juravlev "Tizimning ko'plab elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlarining ifodasi sifatidagi "mexanizm" tushunchasi o'z vaqtida texnika fanlaridan olingan bo'lib, mexanizm tushunchasi ostida mashina, apparat yoki asbobni harakatga keltiruvchi, ta'sirni uzatuvchi va energiyani o'zgartiruvchi ichki tuzilmasi nazarda tutiladi. Umumiy holatda mexanizm kirish (energiya) va chiqish (talab etilayotgan natija), o'zaro ta'sir qiluvchi (yuklama) va boshqa elementlar (ish)ni harakatga keltiruvchi (energiyani uzatish)ning oldindan belgilangan parametrlariga ega bo'lgan, muayyan tarzda o'zaro bog'langan alohida elementlarini namoyon etadi.

Texnik tizimlarga taqqoslaganda, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga nisbatan “mexanizm” atamasi jo‘shqinlik, o‘zgaruvchanlik, tarkibiy elementlarning bir turda bo‘lmasligi, dastlabki holatga qaytish imkonining mavjud emasligi va boshqa funksional tavsiflar bilan bog‘liq bo‘lgan qator xususiyatlarga ega” [2], deb ta’kidlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, mexanizm – bu muayyan ichki tartibga ega bo‘lgan, hodisa yoki jarayonlarga kuch (ta’sir) beruvchi ichki elementlarning o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirdagi harakatidir. Mexanizm tushunchasiga berilgan ta’riflar va izohlar pirovardida o‘zining mazmunan yaqinligi va shaklan o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi qarashlar va ular asosidagi mulohazalarni quyidagi xulosa orqali ifodalash mumkin: “Biz “mexanizm” atamasining har qanday turlicha ta’riflari, manbalaridan foydalanishimizdan qat’iy nazar, u umumiy asosga ega: mexanizm – bu obyektning harakatga keltiruvchi ko‘plab o‘zaro bog‘liq elementlardir. Bu o‘rinda ikkita yondashuv ajralib turadi: mexanizm obyektning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi elementlar majmui sifatida hamda obyektning rivojlanishini ta’minlovchi elementlarning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri sifatida qaralishi mumkin” [3].

Shuni ta’kidlash kerakki, faqat iqtisodiy parametrlarni hisobga oladigan va guruh tuzish ko‘lamining xususiyatlarini, tadbirkorlik faoliyatining kollektivlik darajasini hisobga olmaydigan boshqaruv yondashuvi kichik biznesning keng ko‘lamli rivojlanishini ta’minlay olmaydi va faqat “zaif yoki samarasiz tadbirkorlik”ning ishlashiga olib keladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada belgilangan tadqiqot vazifalarini hal etish uchun statistik, solishtirma tahlil usuli, korrelyatsion va regression tahlil, so‘rovnoma va boshqa usullar qo‘llanilgan.

Solishtirma tahlil usuli – bu umumiy ilmiy usullar qatoriga kirib, u empirik tahlil xarakteristikasiga ega. Uning turlari ko‘p, masalan, solishtirmataqqoslash, tarixiy solishtirma va boshqalar. Statistik usulning umumiy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: yig‘ilgan ma’lumot bazasi ma’lum kategoriyalar bo‘yicha guruhlanishi, tizimlashtirilishi hamda ikki va undan ko‘p bo‘lgan bir guruh va rekvizitga ega ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan nisbiy solishtirish amalga oshiriladi va holatga baho beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda kichik biznesning roli va ahamiyati to‘g‘risidagi qarashlar va xulosalar bugungi kun ilmiy doirasida deyarli shakllanib, bu boradagi munozarali jihatlar va ilmiy bahslashuvlar ma’lum darajada o‘zining qat’iy ifodasiga ega bo‘lgan. Ya’ni, hozirgi zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasida kichik biznes subyektlari o‘ziga tegishli qator iqtisodiy-ijtimoiy funksiyalarni bajarish orqali, bir tomondan, iqtisodiyotning samaradorligini, boshqa tomondan esa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlab turuvchi sohani namoyon etadi.

Iqtisodiy nazariyada uzoq vaqtlar davomida kichik biznes – bu aksariyat qismi xususiy sektorga taalluqli bo‘lgan, iqtisodiy faoliyat ko‘lami jihatidan ixcham hamda boshqaruv tuzilmasi jihatidan sodda ko‘rinishga egaligi sababli tashqi tartibga solish yoki boshqarish uchun ehtiyoj mavjud bo‘lmagan soha, degan yondashuv hukmronlik qilib kelgan. Biroq, insoniyat bosib o‘tgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tarixiy tajribasi hamda zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar mazkur qarashlarning doimo ham mutlaq to‘g‘ri emasligini namoyon etdi.


Agar bozor mexanizmlari to‘liq va samarali ishlagan, ya’ni mukammal raqobat sharoitida kichik biznes korxonalarini nazariy jihatdan har qanday tashqi boshqaruvga muhtoj bo‘lmaydi. Bozor qonunlaridan kelib chiqqan holda kichik korxonalar o‘zini o‘zi tartibga soladi. Chunki xususiy mulkdor o‘z kapitalini qaysi tarmoq yoki sohaga kiritayotganini, bu yerdagi raqobat darajasi, foyda normasi, xarajatlar va daromadlar nisbatini oldindan puxta o‘rgangan bo‘ladi. Foydani maksimalashtirish sari harakat uning nimalarga tayyor turishi va qaysi harakatlarni amalga oshirishini oldindan aytib beradi.

Biroq, hayotda ko‘pincha nomukammal raqobat sharoiti amal qiladi. Kichik biznes subyektlari o‘z xo‘jalik yuritish faoliyati doirasida ko‘pincha monopolistik, oligopolistik tuzilmalar bilan to‘qnash keladi. Bunda mutlaq yoki nisbatan keng hukmronlik mavqeiga ega tuzilmalar faoliyatiga taqqoslaganda, kichik biznes subyektlari muayyan jihatdan cheklangan faoliyatni namoyon etadi.

Kichik biznes subyektlari tabiatidan kelib chiqqan holda cheklangan faoliyat yoki sohalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1) qo‘shimcha ishchi kuchini yollashdagi cheklovlar;
- 2) asosiy va aylanma kapitalning cheklanganligi;
- 3) moddiy resurs va zaxiralar bo‘yicha cheklanganlik;
- 4) maxsus boshqaruv tuzilmasini shakllantirish va joriy etishning iqtisodiy samarasizligi tufayli cheklanganlik va h.k.

Kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish, ayniqsa, muayyan maqsadlarga erishish yo'nalishida yaxlit soha sifatida boshqarishning zarurligini bu boradagi "o'ziga xos tizimli zanjir" orqali ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm: Kichik biznes subyektlari faoliyatini boshqarishning zarurligini ifodalovchi "o'ziga xos tizimli zanjir"¹

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kichik biznes subyektlari faoliyatini yaxlit soha sifatida boshqarishning zarurligini bir necha o'zaro bog'liq holatlar orqali izohlash mumkin.

Kichik biznes faoliyatining iqtisodiy tabiati. Ma'lumki, kichik biznesning iqtisodiy tabiati eng avvalo, uning iqtisodiy manfaatdorlik tamoyili orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni, yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik biznes korxonalarini o'zining tarkib topish g'oyasidan tortib, to faoliyat natijasiga qadar uning egasi va faoliyat ishtirokchilariga muayyan manfaat keltirib, barcha xo'jalik yuritish jarayonlarining "ko'rinmas qo'l" tamoyili asosida amalga oshadi. Faoliyat foyda keltirmaydigan bo'lsa, u umuman boshlanmaydi, boshlangan faoliyat esa darhol to'xtatiladi.

Mazkur tezkorlik va tor manfaatga yo'naltirilganlikning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklari ham mavjud. Jumladan:

- ayrim faoliyat turlari yoki iqtisodiy jarayonlarning kam foyda keltirishi sababli umuman amalga oshirilmasligi;
- mazkur "bo'shliq"ni to'ldirishga xizmat qiluvchi bozor mexanizmi ta'sirining muayyan muddat, vaqt talab etishi;
- yuqori foyda me'yori ortidan "quvish" oqibatida muayyan tovar va xizmatlarning talabdan ortiq hajmda ishlab chiqarilishi;
- raqobat keskinligining ortib ketishi oqibatida ayrim korxonalarining bankrotlikka yuz tutishi va h.k.

Yuqoridagi kamchiliklar, o'z navbatida, kichik biznesning yaxlit soha sifatida me'yordagi barqaror takror ishlab chiqarish jarayonlariga putur yetkazadi. Shunga ko'ra, mazkur jarayonlarni boshqarish orqali tashqi tartibga solishga ehtiyoj tug'iladi.

Iqtisodiy faoliyat yuritishdagi cheklanishlar. Jahonning deyarli barcha mamlakatlarida kichik biznes maqomi alohida belgilab berilgan. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalariga ko'ra katta ahamiyat kasb etuvchi ushbu soha ayni paytda o'zining iqtisodiy faoliyatida muayyan cheklanishlarga duch keladi. Masalan, kichik hajmdagi iqtisodiy faoliyat yuritish, xodimlar sonining cheklanganligi, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish quvvati, tovar aylanmasi, moddiy zaxiralar, moliyaviy natijalar va boshqa jihatlar bo'yicha cheklanganlik shular jumlasidandir. Mazkur cheklanganlik uni yirik va o'rta ishlab chiqarishga nisbatan noraqobatdosh zaif sohaga aylantiradiki, bu o'rinda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish ehtiyoji paydo bo'ladi.

Ichki o'zini o'zi tartiblashning yetarli emasligi. Kichik biznesni tartiblash yoki boshqarishning ikki darajasi jihatidan quyidagicha yondashish mumkin:

- 1) kichik biznes korxonasining ichki boshqaruvi;
- 2) kichik biznes sohasining davlat tomonidan, shu jumladan, mahalliy boshqaruv organlari tomonidan boshqarilishi. Kichik biznes korxonasining ichki boshqaruvi uning faoliyat samaradorligini ta'minlash hamda barqaror rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Biroq, kichik biznes korxonalarini yaxlit soha

1 Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

sifatida tashqi tartibga solish yoki boshqarish mavjud bo'lmagan ekan, pirovardida milliy iqtisodiyotning me'yordagi faoliyatini ta'minlab bo'lmaydi.

Tashqi tartiblashga muhtojlik. Milliy iqtisodiyot turli qamrov va darajalarni namoyon etuvchi xo'jalik birliklari, ularning birlashmalari, tarmoqlar va kichik tarmoqlar sohalarni o'z ichiga oladi. Kichik biznes korxonalarini mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida ichki tarkibiy tuzilma va funksional bo'g'inlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash maqsadidagi boshqaruv bilan bir qatorda, ushbu toifadagi barcha korxonalarining majmuini tashkil etuvchi kichik biznes sohasining ham boshqarilishiga ehtiyoj sezadi. Kichik biznesni iqtisodiyotning alohida sektori sifatida tashqi tartiblash mamlakat iqtisodiy tizimi samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu holatda milliy iqtisodiyotda kichik biznesning solishtirma salmog'i, uning iqtisodiyot boshqa tarkibiy qismlari bilan mutanosibligi va muvofiqligi darajalari maqsadga muvofiq holda optimal tarzda ushlab turishga harakat qilinadi.

Mahalliy darajadagi boshqaruv (tartiblash)ning afzalligi va zarurligi. Boshqaruvning miqyos jihatdan quyidagi ikkita yirik darajasini ajratish mumkin:

- 1) markazlashgan (respublika) boshqaruv organlari;
- 2) mahalliy boshqaruv organlari.

Kichik biznes faoliyatini tartibga solishda markazlashgan boshqaruv organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1) mamlakatda kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish;
- 2) kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlarini belgilab berish;
- 3) kichik biznes faoliyatining umummilliy va hududiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- 4) kichik biznes faoliyatini makroiqtisodiy prognozlashtirish va h.k.

Kichik biznes faoliyatini tartibga solishda markazlashgan boshqaruv organlari faoliyatiga nisbatan mahalliy boshqaruv organlari faoliyati ta'sirchan va samarali hisoblanadi. Chunki, markazlashgan boshqaruv darajasida mazkur sohaning umumiy faoliyat chegarasi va yo'nalishlari belgilab berilsa, mahalliy boshqaruvda muayyan tadbirkorlar guruhi faoliyatni samarali tashkil etish va tartibga solishning aniq chora-tadbirlari belgilab beriladi.

Kichik biznesning afzal tomonlaridan biri – bu undagi boshqaruvning sodda va ixchamligi hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy subyekt singari kichik biznes ham alohida soha sifatida boshqaruv jarayonlarini taqozo etadi. Biroq, bu o'rinda, boshqa iqtisodiy subyektlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Kichik biznes sohasini belgilashdagi mavhumlikning mavjudligi. Ya'ni kichik biznes alohida tarmoq (masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k.), iqtisodiy faoliyat turi (masalan, moddiy-texnika ta'minoti, bozor xizmatlari va h.k.), soha (masalan, madaniyat, ta'lim va h.k.) emas. U iqtisodiyotdagi turli tarmoqlar, iqtisodiy faoliyat turlari va sohalarning har bir mamlakatdagi qonunchilik bilan belgilab berilgan turli mazmundagi chegaralari bilan ajralib turuvchi qismi hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur soha (ayrim manbalarda sektor atamasi ham qo'llaniladi)ni boshqarish o'ziga xos murakkabliklar, yondashuvlarni taqozo etadi.

Kichik biznes faoliyatining o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra mahalliy boshqaruvga moyil hisoblanishi. Ba'zida yirik korxonalar, masalan, transmilliy korporatsiyalar boshqaruv nuqtai nazaridan milliy daraja qamrovidan ham chiqib ketadi. Ba'zida ayrim yirik korxonalarining o'zi mustaqil boshqaruv idorasini vujudga keltiradi. Ko'pchilik yirik va o'rta korxonalar muayyan vazirlik va idoralarga bo'ysunadi va ular tomonidan boshqariladi.

Kichik biznes subyektlarini boshqarish esa, ko'p hollarda, maxsus boshqaruv idoralari yoki vazirliklar uchun u qadar jozibali, manfaatli hisoblanmaydi. Chunki:

birinchidan, xo'jalik yurituvchi subyekt ko'lamining haddan tashqari kichikligi va ular faoliyat natijalarining ahamiyatsiz ekanligi ma'muriy boshqaruvning samarasizligiga olib keladi;

ikkinchidan, kichik biznes subyektlari sonining haddan tashqari ko'pligi ular barchasining faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini cheklab qo'yadi;

Bundan ko'rinadiki, kichik biznes faoliyati o'z tabiatiga ko'ra ko'proq mahalliy boshqaruvga yaqin hisoblanadi. Mazkur qoidani quyidagi holatlar orqali aniqroq ifodalash mumkin:

- kichik biznes subyektlari aksariyat hollarda o'z xo'jalik faoliyatida ko'proq mahalliy doiradagi iqtisodiy resurslardan foydalanadi;
- kichik biznes subyektlari o'z faoliyati doirasida kelib chiquvchi soliq va to'lovlarni asosan mahalliy byudjetga to'laydi;

- kichik biznes subyektlari faoliyatining asosiy qismi (takror ishlab chiqarish bosqichlari – ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol) muayyan hudud doirasida amalga oshadi;
- mahalliy byudjetning "taqdiri" ko'p holatlarda bevosita mazkur hududdagi kichik xo'jalik subyektlari faoliyati natijalariga bog'liq bo'ladi;
- kichik biznes subyektlari faoliyat ko'lamining torligi ularning mahalliy boshqaruv organlari qaror va ko'rsatmalariga bog'liqligini kuchaytiradi.

Kichik biznes subyektlarini boshqarishda mazkur jarayonning mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati bilan mushtarakligini ochib berish muhim hisoblanadi. Bunda qator yondashuvlar, shu jumladan, kichik biznesning afzallik va kamchiliklari nuqtai nazaridan yondashuvdan foydalanish mumkin. Dastlab kichik biznes afzallik jihatlarining soha korxonalariga ta'siri hamda mahalliy boshqaruv bilan mushtarakligi holatlarini quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval: Kichik biznes afzallik jihatlarining soha korxonalariga ta'siri hamda mahalliy boshqaruv bilan mushtarakligi²

Afzallik jihatlari	Korxonalar faoliyatiga ta'siri	Mahalliy boshqaruvga mushtarakligi
Nisbatan kam moliyaviy mablag'ning talab etilishi	Korxonalar tashkil etishni osonlashtiradi, kamroq sondagi ta'sischi larni taqozo etadi	Hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va iqtisodiy salohiyatni amalga oshirishda qo'shimcha korxonalar ni safarbar etish vositasi sifatida foydalanish
Boshqaruvning sodda tuzilmasi kichik korxonalar ni boshqarish ni yengillashtiradi	Faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi munozaralar ni kamaytirib, o'z vaqtida qaror qabul qilish ni jadallashtiradi	Hududda samarali va ijobiy biznes muhitini shakllantirish, aholi o'rtasida o'zaro tushunish va murosa kayfiyatini yuzaga keltirish
Korxonalar ko'lamining katta bo'lmasligi xodimlar va ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va boshqarish ni osonlashtiradi	Asossiz sarf-xarajatlar qisqarib, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi	Hudud korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish
Kichik korxonalar ning moslashuvchan va harakatchanligi	Korxonalar ni joylashtirish, yo'nalishini o'zgartirish, yangi sohalarga tezlik bilan o'tishi orqali iqtisodiy faollik ni oshiradi	Hududdagi bandlik, iqtisodiy faollik va bozor talabining qondirilishi darajalarini oshirish
Innovatsion g'oyalarni amalga oshirish	Tarmoq va hududiy raqobatbardoshlik ni ta'minlaydi	Hudud iqtisodiyotining innovatsion va investitsion jozibadorligini ta'minlash
Milliy va tarixiy an'analar ni e'tiborga olishi	Iste'molchilar safini kengaytiradi	Hududning milliy va tarixiy qiyofasini saqlab qolish, aholi qadriyatlariga e'tibor qaratish

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kichik biznes faoliyatining amal qilishi bilan bog'liq afzallik jihatlari dastlab mazkur sohadagi iqtisodiy subyektlar ning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, o'z navbatida mazkur hududdagi mahalliy boshqaruv idoralari ning faoliyati bilan ham mushtarakligini namoyon etadi. Ya'ni, mahalliy boshqaruv idoralari hududdagi kichik biznes subyektlarini faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish hamda o'zlarining vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida foydalanishdan manfaatdor hisoblanadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish, ayniqsa, muayyan maqsadlarga erishish yo'nalishida yaxlit soha sifatida boshqarishning zarurligini bu boradagi "o'ziga xos tizimli zanjir" orqali ifodalash mumkin.

Kichik biznesning afzal tomonlaridan biri – bu undagi boshqaruvning sodda va ixchamligi hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy subyekt singari kichik biznes ham alohida soha sifatida boshqaruv jarayonlarini taqozo etadi, biroq bu o'rinda, boshqa iqtisodiy subyektlardan farq qiluvchi, o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Kichik biznes faoliyati o'z tabiatiga ko'ra ko'proq mahalliy boshqaruvga yaqin hisoblanib, tadqiqot davomida mazkur qoidani asoslovchi holatlar ifodalab berilgan.

² Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

Kichik biznes subyektlarini boshqarishda mazkur jarayonning mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati bilan mushtarakligini ochib berish muhim hisoblanib, bunda qator yondashuvlar, shu jumladan, kichik biznesning afzallik va kamchiliklari nuqtai nazaridan yondashuvdan foydalanish mumkin. Shunga ko'ra, maqolada dastlab kichik biznes afzallik jihatlarning soha korxonalariga ta'siri hamda mahalliy boshqaruv bilan mushtarakligi holatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бокаев А.В. Местное самоуправление и малый бизнес. Бизнес становится главным фактором поддержания жизни во многих муниципальных образованиях. // Известия Иркутской государственной экономической академии (Байкальский государственный университет экономики и права). - Электронный научный журнал. 2011. №3. -<http://eizvestia.isea.ru>
2. Журавлев Д.М. Организационно-экономический механизм управления устойчивым развитием региона // Креативная экономика. – 2019. – Том 13. – № 2. – С.249-260. doi:10.18334/ce.13.2.39905
3. Бычкова А.Н. Экономический механизм: определение, классификация и применение.-Вестник Омского университета. Серия "Экономика". 2010. № 4. С. 37.
4. Ubaydullayev A.T. Kichik biznesni boshqarishda uslubiy yondashuvlar.// "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 23-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to'plami 15-sentyabr, 2021-yil 23-son.
5. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=16077187763737932205&btnI=1&hl=ru> .
6. Требова С.В., Плешаков П.С. Предпринимательские способности населения: понятие и измерение // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №9(17), 2012. –www.sisp.nkras.ru. – С.5.
7. Артемова О.В., Логачева Н.М., Нестеренко И.Ю. Ресурсы для развития малого и среднего предпринимательства региона //Социум и власть. 2018. № 2 (70). С.48-55.;
8. Багинова В.М., Беломестнов В.Г. Потенциал развития малого промышленного предпринимательства в регионе. // Известия Иркутской государственной экономической академии. 2015. Т. 25, № 6. С.999-1003.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

